

BOSHLANG‘ICH MUSIQIY TA’LIM TIZIMIDA BOLALARNING MUSIQIY RITM QOBILYATINI RIVOJLANTIRISH

Shukurjonova Xusnora Farhod qizi

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi

2 - bosqich magistranti

Shahnoza Ayxodjayeva

Ilmiy rahbar:

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi dotsenti,

san’atshunoslik fanlari nomzodi

Email: xusnorashukurjonova8@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada musiqiy ta’limning dastlabki bosqichida bolalarning ritm his qilish qobiliyatini rivojlantirish usullari haqida yoritildi.

Kalit so‘zlar: Musiqa, ritm, qobilyat, cholg‘u, mashg‘ulot, o‘qituvchi, pedagogika, ta’lim, nota.

DEVELOPMENT OF CHILDREN’S MUSICAL RHYTHM ABILITY IN THE PRIMARY MUSICAL EDUCATION SYSTEM

ABSTRACT

This article covers methods of developing children’s ability to sense rhythm at the initial stage of musical education.

Key words: Music, rhythm, ability, instrument, training, teacher, pedagogy, education, notation.

Musiqa san’ati – insonning hissiy kechinmalari, tasavvur doirasi hamda fikrlarini musiqiy tovushlar majmusi vositasida aks ettiruvchi san’atdir. Musiqa insonning turli kayfiyatlarini o‘zida ifoda etuvchi vositadir. Jumladan: shodlik, g‘amginlik, zavqlanish, qo‘rquv va boshqalar. Ushbu maqolada musiqiy ta’limning dastlabki bosqichi ya’ni Bolalar musiqa va san’at maktablarining ta’lim jarayonida bolalarning ritm his qilish qobiliyatini rivojlantirish usullari haqida yoritildi.

Bolalar musiqa va san’at maktablari uzluksiz ta’lim tizimining majburiy bo‘lmagan turi hisoblanib, maktabdan tashqari ta’lim berishga mo‘ljallangan ta’lim bo‘g‘inidir. O‘zbekistonda XX asrda musiqa maktablari tashkil qilingan. 1920 –yilda Buxoroda Sharq musiqa maktabi o‘z faoliyatini boshlagan. Ushbu dargohda Shashmaqom uslublarini o‘qitish bo‘yicha ta’lim berilgan.

Musiqa maktablarida bolalarga boshlang‘ich musiqa ta’limi beriladi. Musiqa maktablariga iste’dodli, intiluvchan, bilimga chanqoq bolalar qabul qilinadi. Musiqa maktablarida cholg‘u ijrochiligi bilan birgalikda, boshlang‘ich musiqa savodi, musiqaning elementar nazariyasi, solfedjio, musiqa adabiyoti hamda xor ijrochiligi o‘qitiladi.

Dars mashg‘ulotlarini tashkil qilishning dastlabki jarayonlarida o‘quvchining ritm his qilish qobiliyatini tekshirib ko‘riladi. Musiqa maktabiga qabul qilish imtihonlarida albatta o‘quvchining ritm bilan bog‘liq qobiliyatini sinovdan o‘tkazish kerak. Chunki ritm his qilish qobiliyati sozanda uchun juda muhim bo‘lgan qobiliyatlardan biridir.

“Metroritmikani his etish – musiqaning vaqtga bog‘liq xususiyatidir. U iroda va tinglashda nafaqat eshitish, balki harakat tabiatiga ham egadir.

Metroritmika hissi turli uzunliklarning uzluksiz ketma – ketligi bilan bog‘liq. Ular go‘yo bir tekis ritmik harakatlarni nisbatan kichik impulslar bilan to‘ldirib turadi. Ritm hissi rivojlantirish juda qiyin bo‘lgan qobiliyatlardan biridir”¹⁴.

¹⁴ Qodirov R. Musiqa psixologiyasi T.:2005 15 - bet

Ritm – musiqaning asosiy elementlaridan biri bo‘lib, musiqa tovushlarining vaqt birligi ichida joylashuv qobiliyatini belgilab beradi.

“O‘quvchida ritm tuyg‘usini shakllantirish va rivojlantirish musiqa pedagogikasining eng zarur va muhim vazifalaridan biridir. Olimlarning fikricha, bu ishning qiyinligi musiqa tovushining vaqt birligi ichidagi cho‘zimini uning balandligiga nisbatan aniq qayd etib bo‘lmasligidadir. Shunga qaramasdan olimlar o‘quvchilardagi musiqa ritm tuyg‘usini tarbiyalash mumkin degan fikrni ilgari suradilar.

Cholg‘u ijrochiligi ta’limining dastlabki paytlaridan boshlab, nota cho‘zimlarini vaqt birligiga nisbatan o‘rgatib boriladi. Nota cho‘zimlari haqidagi bilimlar ijrochilik san’atini egallashda asosiy bilimlardan hisoblanadi. Har qanday musiqa asarini ijro etishda nota cho‘zimlarini anglash cholg‘uchilik mahorati asoslaridan biridir. O‘quvchilarda musiqa ritmi tuyg‘usini tarbiyalash ishiga ta’limning dastlabki paytlaridan kerakli darajada e’tibor berish haqiqiy sozandani shakllantirish uchun zamin yaratadi”¹⁵.

Qobiliyat – insonning individual salohiyati, imkoniyatlaridir. Qobiliyat bilimdan keskin farqlanadi. Bilim esa mutoalaa natijasidir. Qobiliyat shaxsning psixologik va fiziologik tuzilishining xususiyati sanaladi. Qobiliyat insonga berilgan inomdir. Qobiliyatning yetakchi xususiyatlaridan biri – narsa va hodisalar mohiyatini ijodiy tasavvur qilishdir. U shaxsning shakllanishi va rivojlanishi natijasi bo‘lishi bilan birga, tabiiy manbaaga ham egadir. Bu tabiiy manbaa – zehndir. Zehn muayyan bir faoliyatga yoki ko‘pgina narsalarga nisbatan ortiqcha qiziquvchanlikda, intilishda va moyillikda namoyon bo‘ladi.

Har qanday qobiliyatning turi shaxsga tegishli murakkab psixologik tushunchadan tashkil topgan bo‘lib, u faoliyatning talablariga mutanosib xususiyatlar tizimini o‘z ichiga oladi.

¹⁵ Ortiqov N. Yosh avlodni musiqiy ritm, eslab qolish va eshitish qobiliyatini rivojlantirish usullari// “Oriental art and culture” Scientific Methodical Journal – Issue 5/2020

Qobiliyatlar turli - tumandir. Jumladan musiqiy qobiliyat. Musiqali idrok etishning vazifasi va mazmunini aniqlash muhimdir. Musiqiy san’at uchun odamning fikrlash va ifodalash hissiyoti asos bo‘lib xizmat qiladi. Maktabgacha tarbiya muassasalarida musiqiy tarbiya - bu bir aniq maqsadga yo‘naltirilgan ya’ni maktabgacha yoshdagi bolani estetik, axloqiy, aqliy rivojini amalga oshirish, bolani shaxs sifatida tarbiyalash, uni dunyoqarashini kengaytirish, o‘z iqtidorini namoyon qila olishga estetik jihatdan musiqani tushunishga, unga ijodkorona yondasha olishga o‘rgatishdan iborat. Har bir bola musiqaning qaysi yo‘nalishini o‘rganishidan qat’iy nazar uning yosh xususiyatlarini, psixologik rivojini musiqa rahbari e’tiborga olishi kerak. Musiqaning bola hissiyoti va intilishiga, uning mazmunini tushunish va his etishga katta ta’sirini hisobga olganda haqqoniy va voqealikka to‘g‘ri aks ettirgan musiqiy asardan o‘rinli foydalanish alohida muhim o‘rin tutadi. Ma’lumki musiqali obrazlarni shakllantirishning asosiy manbai tabiat va kishi nutqiga mos kelishiga, atrofimizdagi dunyo va undagi go‘zalliklarni idrok etishga bivosita bog‘liqdir. Musiqaga hissiy sezgirlik bolalarda juda erta, hayotining birinchi oylarida paydo bo‘lishi mumkin. Bola quvnoq musiqa sadolariga – beixtiyor harakatlar va undovlarga jonli munosabatda bo‘lishi va diqqatni jamlagan holda, sokin musiqani idrok etishga qodir. Asta – sekin, vosita reaksiyalari ko‘proq ixtiyoriy, musiqaga mos keladi, ritmik tarzda tashkil etiladi.

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, maktabgacha yosh - bu musiqiy qobiliyatlarni shakllantirishning sinestetik davri. Barcha bolalar tabiatan musiqaga moyil. Har bir kattalar bu haqda bilishi va eslashi kerak. Bola kelajakda qanday bo‘lishi, u o‘zining tabiiy sovg‘asini qanday tasarruf etishi unga bog‘liq va faqat unga bog‘liq. “Bolalik musiqasi - yaxshi tarbiyachi va umr bo‘yi ishonchli do‘stdir”.

Musiqiy qobiliyatning erta namoyon bo‘lishi bolaning musiqiy ta’limini imkon qadar erta boshlash zarurligi haqida gapiradi. Bolaning aql-zakovati, ijodiy va musiqiy-sezgi qobiliyatlarini shakllantirish imkoniyati sifatida yo‘qotilgan vaqt tuzatib bo‘lmaydigan darajada o‘tib ketadi. Shuning uchun tadqiqot sohasi katta yoshdagi bolalarni musiqiy tarbiyalash metodologiyasi maktab yoshi.

Musiqiy qobiliyatlar barcha bolalarda turli yo‘llar bilan namoyon bo‘ladi. Biror kishida hayotning birinchi yilida, barcha uchta asosiy qobiliyat juda aniq namoyon bo‘ladi, tez va oson rivojlanadi. Bu bolalarning musiqiy qobiliyatidan dalolat beradi. Boshqalarida esa qobiliyatlar keyinroq ochiladi va ularni rivojlantirish qiyinroq. Bolalardagi eng qiyin rivojlanish bu musiqiy va eshitish tasvirlari - ohangni ovoz bilan takrorlash, uni aniq intonatsiya qilish yoki musiqa asbobida quloq bilan olish qobiliyati.

Musiqani idrok etish insondan diqqat xotira, rivojlangan tafakkur, turli bilimlarni talab qiladigan murakkab jarayondir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bularning barchasi hali mavjud emas. Shu bois bolani musiqaning o‘ziga xos xususiyatlarini san’at turi sifatida tushunishga, uning e’tiborini ongli ravishda musiqiy ifoda vositalariga qaratishga (temp, dinamika), musiqa asarlarini janr va xarakterga ko‘ra farqlashga o‘rgatish zarur.

O‘quvchidagi musiqiy ritm qobilyatini aniqlashning eng oddiy va ommalashgan usuli unga qo‘llarimiz yordamida ma’lum bir ritmdagi qarsakni chalib berib, so‘ngra shu ritmni qaytarib berishini so‘rash orqali tekshirib ko‘rishdir. Musiqiy ritm hissi qoniqarli qarajada bo‘lgan o‘quvchi ushbu ritmni hech qanday xatosiz qaytarib beradi. Musiqiy qobiliyat jumladan musiqiy ritm qobilyati hamma o‘quvchilarda ham birdek darajada emas. Ya’ni tabiatan insonlarning muayyan qobilyat doirasida har kim turlicha daraja ega bo‘ladi.

Tabiiyki, ba’zi bir o‘quvchilarda ritm his qilish qobilyati pastroq bo‘lishi mumkin, ba’zilarida esa eshitish qobilyatida kamchiliklar bo‘ladi. Ana shu kamchiliklarni to‘g‘irlash, musiqiy qobiliyatni rivojlantira olish o‘qituvchining zimmasidagi vazifadir. Ya’ni ritm his qilish qobilyati pastroq o‘quvchi bilan o‘qitish jarayonida ko‘proq ritm ustida ishlash kerak. Dars mashg‘ulotlarida o‘qituvchi qarsak chalish orqali turli xil ritmlarni chalib berishi va o‘quvchidan ushbu ritmni takrorlashni talab qilishi uning ritm his qilish qobilyatini asta - sekinlik bilan rivojlanishiga turtki bo‘ladi. Musiqiy ritm qobilyati past bo‘lgan o‘quvchi bilan dars mashg‘ulotlarini olib borish vaqtidagi ahamiyatli jarayon shundaki, o‘quvchiga asar tanlash paytida dastlabki

sinflarda ritmik jihatdan qiyin bo‘lmagan asarlarni ijro qildirish kerak. Chunki ritmik jihatdan qiyin bo‘lgan asarni ijro qilishd bolaga qiyinchilik tug‘diradi va u o‘zini noqulay va musiqaga layoqatsiz his qilishni boshlaydi. Oqibatda o‘quvchining musiqadan ko‘ngli sovishi mumkin. O‘quvchiga avval sodda ritmdagi asarlarni ijro qildirish kerak. Asta - sekinlik bilan uning qobilyat darajasi ijro qila oladigan asarlarni ijro qilsa maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Qodirov R. “Musiqqa psixologiyasi”, “Musiqqa” nashriyoti T.:2015
2. Nazarov O. “Qashqar rubob”, “NISHON-NOSHIR” T.:2013
3. Ortiqov N. Yosh avlodni musiqiy ritm, eslab qolish va eshitish qobilyatini rivojlantirish usullari// “Oriental art and culture” Scientific Methodical Journal – Issue 5/2020